



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




№8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 68 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
<i>Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna</i>	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
<i>Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li</i>	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
<i>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
<i>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</i>	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
<i>Eshmuminova Oybarchin Botirovna</i>	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
<i>Maydonova Saboxat Sadulloyevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
<i>Mingbayeva Barno Ubaydullayevna</i>	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies	52
<i>Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna</i>	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
<i>Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi</i>	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
<i>Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna</i>	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
<i>Umarova Feruzabonu Bobir qizi</i>	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA O'ZIGA XOSLIGI

Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqotda ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda ta'lim tizimida yuz berayotgan zamonaviy o'zgarishlar, yangi yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, integratsiyalashgan o'quv uslublari boshlang'ich sinflar o'qituvchisi oldiga qo'yilayotgan yangi talablarni shakllantirayotgani ta'kidlanadi. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi, mazmuni va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinib, ularning pedagogik, didaktik, axborot-kommunikatsion va reflektiv kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, pedagogik bilim, o'qitish ko'nikmalari, texnologik bilimlar, interaktivlik, sezgirlik, pragmatika, kognitiv, bilish faoliyati.

Abstract: This scientific study addresses the development of professional competencies of future primary school teachers in the context of educational transformation from scientific, theoretical, and practical perspectives. The study emphasizes that modern changes in the education system, new approaches, digital technologies, and integrated teaching methods are shaping new requirements for primary school teachers. The research analyzes the structural composition, content, and development stages of future teachers' professional competence and proposes modern methodological approaches aimed at forming their pedagogical, didactic, information-communication, and reflective competencies.

Key words: competence, pedagogical knowledge, teaching skills, technological knowledge, interactivity, sensitivity, pragmatics, cognitive, cognitive activity.

Аннотация: Данное научное исследование охватывает проблему формирования профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов в условиях трансформации образования с научной, теоретической и практической точек зрения. В исследовании подчеркивается, что современные изменения в системе образования, новые подходы, цифровые технологии и интегрированные методы обучения формируют новые требования к учителям начальной школы. Проведен анализ структурного состава, содержания и этапов развития профессиональной компетентности будущих педагогов, а также разработаны современные методические подходы, направленные на формирование у них педагогической, дидактической, информационно-коммуникативной и рефлексивной компетентностей.

Ключевые слова: компетентность, педагогические знания, навыки преподавания, технологические знания, интерактивность, чувствительность, прагматика, когнитивность, познавательная деятельность.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatning raqobatbardoshligi, inson kapitalini rivojlantirish va barqaror ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy o'qituvchini tayyorlash hamda bosqichma-bosqich kompetensiyaviy yondashuvga o'tish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PQ–81-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi"da ^[3,8] o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, ularning zamonaviy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir, 2020-yil) da ^[1,20] ham kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qituvchi tayyorlash zarurligi ta'kidlangan.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim sohasida olib borilayotgan global o'zgarishlar va raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchining roli va kasbiy kompetensiyasiga bo'lgan talab sezilarli darajada ortib bormoqda. Ushbu masala bo'yicha bir qancha olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, ular o'qituvchining kasbiy faoliyati, pedagogik mahorati, innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, Sh. Mirziyoyevning ta'lim sohasidagi islohotlari va qarorlarida o'qituvchi shaxsining yangicha kompetensiya modelini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida belgilab berilgan. M. Usmonxo'jayev, N. Jo'rayev, M. Turg'unov kabi olimlar o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, ularning zamonaviy texnologiyalarni egallashi va metodik yondashuvlar ustida tadqiqotlar olib borgan. P. I. Pidkasistiy, V. A. Slastyonin, A. K. Markova singari rus tadqiqotchilari esa o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibi, strukturasi va rivojlanish bosqichlarini chuqur tahlil qilganlar ^[9,30].

Yevropa Ittifoqi, UNESCO, OECD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan o'qituvchilar kompetensiyasining zamonaviy modeli, "21-asr ko'nikmalari" konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, quyidagi mavzular atrofida ilmiy izlanishlar olib borilgan:

- Ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va o'qituvchi kompetensiyasi o'rtasidagi bog'liqlik;
- Raqamli pedagogika va uning o'qituvchi kompetensiyalariga ta'siri;
- Kasbiy rivojlanish va doimiy ta'lim konsepsiyasi;
- O'qituvchining refleksiv yondashuvi va tanqidiy fikrlash kompetensiyasi ^[8,40].

Mazkur mavzu bo'yicha yetarli darajada ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, aynan ta'lim transformatsiyasi sharoitida – ya'ni raqamlashtirish, masofaviy ta'lim, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish kontekstida o'qituvchining kompetensiyasini kompleks tarzda rivojlantirishga qaratilgan izlanishlar hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois, bu mavzu o'zining ilmiy-amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda va yangi yondashuvlar, konseptual model va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi ^[7,90].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kompetensiyaga asoslangan yondashuv qo'llaniladi, ya'ni o'qituvchining bilim, ko'nikma va munosabatlari (kasbiy kompetensiyalari) qanday shakllanishi va rivojlanishi ilmiy asosda o'rganiladi. Tadqiqotda asosan tahlil, so'rovnoma, kuzatuv va eksperiment kabi empirik metodlardan foydalaniladi. Tahlil metodi yordamida ilgari chop etilgan ilmiy maqolalar, davlat dasturlari va o'quv standartlari o'rganiladi. So'rovnoma orqali o'qituvchilar va talabalar fikrlari aniqlanadi, kuzatuv jarayonida dars berayotgan o'qituvchilarning amaliy faoliyati bevosita tahlil qilinadi, eksperiment metodi esa maxsus ishlab chiqilgan usullar asosida dars o'tkazish va avvalgi hamda keyingi natijalarni solishtirish imkonini beradi. Tadqiqot bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: avval muammo aniqlanib, tegishli adabiyotlar o'rganiladi (tayyorlov bosqichi), keyin so'rovnomalar, kuzatuvlar va eksperimentlar o'tkaziladi (asosiy bosqich), so'ngra olingan natijalar tahlil qilinadi va ularning asosida tegishli xulosalar chiqariladi (tahlil bosqichi), yakuniy bosqichda esa amaliy va metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi (tavsiyalar bosqichi). Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, agar o'qituvchilarni zamonaviy metodlar asosida o'qitish tizimi shakllantirilsa, ularning kasbiy kompetensiyalari sezilarli darajada oshadi. Shu bois, ushbu tadqiqotda qo'llanilayotgan metodologik yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim siyosatida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi: O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Milliy o'quv dasturlarining yangilanishi, boshlang'ich ta'lim standartlarining takomillashuvi o'qituvchidan faqat bilim egasi emas, balki kompetent shaxs sifatida faoliyat yuritishni talab qilmoqda ^[13,35]. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuv asosida kredit-modul tizimi joriy etilgan ^[5,20]. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pedagogik-psixologik bilimlar (bolalar psixologiyasi, yosh xususiyatlari, tarbiya nazariyasi);
- didaktik kompetensiya (darsni rejalashtirish, metodlardan foydalanish);
- axborot-kommunikatsion kompetensiya (AKT vositalarini qo'llay olish);
- kommunikativ va reflektiv kompetensiya (o'quvchi bilan muloqot qilish, o'z faoliyatini tahlil qilish).

Aksar pedagogika yo'nalishidagi talabalar nazariy jihatdan tayyorlanadi, lekin amaliy mashg'ulotlar (stajirovka, maktab bilan hamkorlik) yetarli darajada chuqur tashkil etilmayapti ^[11,30]. Boshlang'ich ta'limning o'ziga xos tabiati shundaki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi ko'p fanli bo'lgani uchun u turli sohalarida (matematika, til, atrof-muhit, texnologiya, musiqa va h.k.) zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Shu bois, uning kasbiy kompetensiyasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Boshlang'ich maktab o'quvchilari 6–10 yoshdagi bolalar bo'lib, bu davrda ular o'quv faoliyatiga endigina ko'nikmoqda. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi, psixolog, namuna bo'luvchi shaxs sifatida ham faoliyat yuritadi. Zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisidan interfaol usullar, AKT, STEAM yondashuvlari, raqamli vositalar bilan ishlay olish kutiladi. Bu esa doimiy yangilanish va kasbiy rivojlanishga ochiqlikni talab qiladi. Ta'lim tizimida mavjud asosiy muammolarga nazariyaning amaliyotdan ustunligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar, AKT bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi, individual yondashuvlarning yetishmasligi, tajribali mentor-o'qituvchilarning kamligi kiradi. Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlar sifatida onlayn kurslar va raqamli resurslardan foydalanish imkoniyati, shaxsiylashtirilgan ta'lim konsepsiyasini tatbiq etish, talabaga yo'naltirilgan strategiyalarni qo'llash hamda "Ustoz-shogird" tizimini rivojlantirish imkoniyati mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari nafaqat fan va pedagogik bilimni, balki raqamli savodxonlik (ICT), reflektivlik va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Xalqaro tadqiqotlar bu ko'nikmalar to'plamini kompetent pedagogning zarur atributlari sifatida ko'rsatadi [7,88]. Metodologik usullar muhim rol o'ynaydi – Lesson Study, action research va Design-Based Research kabi faol metodlar orqali o'qituvchilar o'z pedagogik mazmuniy bilimlarini (PCK) va texnologiyalar bilan integratsiyalashgan kompetensiyalarini (TPACK) mustahkamlashi mumkin. Global hamda O'zbekistonga o'xshash ko'plab kontekstlarda bir xil ahamiyatga ega bo'lgan raqamli kompetensiyalarni shakllantirish pre-service o'qituvchilarning zamonaviy talablar uchun tayyorgarligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, inkluziv yondashuvlar o'qituvchi tayyorlashda chuqur o'rin egallaydi. Reflective practice (reflektiv amaliyot) o'qituvchilarda professional-metakognitiv ko'nikmalarni mustahkamlaydi va pedagogik natijalarni uzluksiz yaxshilashga yo'naltiradi. Pedagoglarning kompetensiyalarini doimiy rivojlantirish uchun professional development (PD) dasturlari – treninglar, hamkorlik, mentorship va microcredentialing kabi mexanizmlar muhim omil hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari pedagogik, mazmuniy, texnologik va shaxsiy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ularni rivojlantirish uchun integratsiyalashgan, amaliy va reflektiv yondashuvlar asosida shakllangan metodologiyalar samarador hisoblanadi. Bu esa yangi avlod pedagoglarini zamonaviy, inkluziv va global talablarga mos tayyorlashda mantiqli asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF–73-son Qarori "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://www.lex.uz/uz/docs/-7499721>
3. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – 120-b.
4. To'raxo'jaeva Sh., Sattorova N. va boshq. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 220-b.
5. Juraqulova D.X. Kasbiy pedagogik kompetensiyalar: mohiyati, shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: TDPU, 2022. – 200-b.
6. G'ulomova M.Q. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020. – 120-b.
7. Axunova D.A. Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 100-b.
8. Mamatqulova D.N. Pedagogik kompetensiya: mazmuni va tarkibiy tuzilmasi // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali. – 2023. – №2. – B. 34–38.
9. Vafoyeva Sh.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish. – Ilmiy maqola. – 2022. – 10-b.
10. Shishov S.E., Kalney V.A. Monitoring kachestva obrazovaniya. – Moskva: Pedagogika, 2000. – 66-b.
11. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2004. – 100-b.
12. Hutmacher W. Key Competencies for Europe. – Strasbourg: Council of Europe, 2001. – 20-b.
13. OECD. Teachers Matter: Attracting, Developing and Retaining Effective Teachers. – Paris: OECD Publishing, 2005. – 15-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.